

AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY TUSHUNCHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Xoliqulov Raxmonbek To'ra o'g'li,
Otabekova Dilshoda Otabek qizi**

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabalari
Ilmiy rahbar: **Adambayev Umidbek Xaitbayevich,**
Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axloqshunoslik tushunchalarining mazmun mohiyati, axloq, odob, xulq tushunchasi, muhabbat, qadr-qimmat tushunchalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Axloq, odob, xulq, muhabbat, qadr-qimmat.

Axloq - arabcha so'z bo'lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, odob degan ma'nolarni anglatadi. «Axloq» iborasi muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatlarini bildiradi. Axloqiy tarbiya –odam axloqini kamolga yetkazish deb qarasa bo'ladi. Ya'ni insonni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydasi keltiradigan bo'lsin. Inson uchun yurak qanchalik zarur bo'lsa axloq ham undanda zarurdir. Xulqi yomon insoni tarbiyalashda yordamga axloq ya'ni uning iymoni yordamga keladi. Bolani axloqli tarbiyali bo'lishi uchun ona qornidaligidayoq shug'ullanish kerak bo'ladi. Buning uchun avvalo ibratli kitoblar o'qish kerak. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafa (s.a.v) shunday deganlar: “Toki meni otangizdan ham bolangizdan ham, barcha odamlardan ham yaxshi ko'rmas ekansiz birortangiz mo'min bo'lolmaysiz”[1].

“Odob - (arab. - adab) - jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgaralar bilan munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi”[2]. “Qaysi birlaringiz o'zingizdan boyroq yoki axloqliroq odamni ko'rib qolsangiz, darhol o'zingizdan kambag'alroq va axloqsizroq odamlar ham borligini eslang”[3]. Biron bir narsada inson o'zini boshqalardan ustun qo'ymasligi kerak shu jumladan odobda ham, shubhasiz o'zini boshqalardan ustun qo'ymaydigan inson takabburlikdan yiroq bo'ladi.

“Xulq - axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o'z ichiga oladi”[4].

“Sizlar odamlarni mol-u dunyolaringiz bilan mamnun qila olmaysizlar, balki ochiq yuz va yaxshi xulqlaringiz bilan minnatdor qilishlaringiz mumkin”[5]. Alloh taolo ham o'z bandalarining chiroyiga, bu dunyoda to'plagan boyligiga qaramaydi, aksincha xulqi va qilgan amalariga qaraydi va oxiratda banda shular orqali savol-javob qilinadi. Ummuman olganda atoqli faylasuf Erkin Yusupov xulqga quyidagicha ta'rif beradi: «Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yorlari, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir»[6], - degan ta'rif ham diqqatga sazovor.

Mehr-muhabbat - Payg'ambarimiz Muhammad Mustafa(s.a.v) ozod qilgan qullari Savbon roziyallohu anhu Rasuli akram (s.a.v) qattiq yaxshi ko'rar, firoqlariga sabr qila olmas edi. Bir kuni Savbon roziyallohu anhu Rosululloh (s.a.v) huzurlariga yuzlari qizargan va titragan holda kirib keldi. U zot Savbon roziyallohu anhunging bu holatini ko'rib sababini so'radilar. Shunda Savbon roziyallohu anhu: «Betob emasman. Ammo ozgina vaqt sizni ko'rmay qolsam

dahshatga tushayapman. Mana hozirgina oxiratni esladim. Shubha yo'qki, siz jannatda Payg'ambarlar bilan bo'lasiz. Men garchi Alloh rahmat qilib jannatga kirsam ham siz bilan bo'la olmayman. Chunki, sizning manzilingiz baland. Agar jannatga kira olmaydigan bo'lsam, keyin sizni hech qachon ko'ra olmayman. Oxiratdagi holim ne kechishini o'ylab titrab ketayapman», dedi. Shunda ushbu oyat nozil bo'ldi: «Kim Allohga va Rasulga itoat qilsa, bas, ana o'shalar Alloh ne'mat bergan nabiyalar, siddiqlar, shahidlar va solihlar bilan birgadirlar. Va ularning rafiqlari qanday ham yaxshi![7] ». Alloh taolo naqdar mehribon va rahli zot, uni o'zigagina ibodat qilib, uni o'zigagina ishonsak bu dunyoda ham ohiratda ham bizni o'z holimizga tashlab qo'ymaydi. Fikrimizcha, har bir musulmon Alloh taologa va uning elchisi Muhammad Mustafo (s.a.v) ga chin qalbdan shaxodat kalimasini aytib iymon keltirsa ko'ngli hotirjam, iymoni mustahkam bo'ladi. Aslida har bir inson hayoti davomida yolg'iz Allohga sajda qilib, yahshi amallar bilan umrini bezasa eng katta erishgan yutug'i shu bo'ladi. Bunday darajaga erishish uchun esa nafat odob, axloq, xulq va albatta qalbida mehr-muhabbat tuyg'usi jo bo'lishi kerak. Qiyomat kuni shunday fazilatlariga ega bo'lgan banda yuzlari nurli holatda boshqalardan ajralib turadi. Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Bir a'robiy Payg'ambarimiz huzurlariga kelib so'radi: « Qiyomat qachon bo'ladi?» « U kun uchun nima hozirlading», dedilar Rasuli akram. «Alloh va Rasuliga muhabbat» deya javob berdi a'robiy. Shunda Rasululoh: «Jannatda ham yaxshi ko'rganlarning bilan birga bo'lasan», dedilar. Demak, ayni muhabbat tufayli biz Alloh Taoloning diydoriga, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom bilan birga abadiy birga bo'lish saodatiga erishamiz.

Qadr-qimmat tushunchasi inson o'zligini anglashi, bu dunyodagi hayoti uning o'zigagina tegishli ekanligi va o'z hayoti uchun o'zi javobgarligi tushuniladi. Qadr-qimmat axloqshunoslikning barcha tushunchalari bilan bog'liq. 1948- yildagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasiga binoan: barcha insonlar erkin tug'iladi va qadr qimmat huquqlari bo'yicha teng deb belgilab qo'yilgan"[8].

"Qadr-qimmat-insonning o'zi, o'zgalari va jamiyat tomonidan oliy qadryat sifatida e'tirof etilishi, uning ma'naviy huquqlarining tan olinishidir"[9]. Haqiqatdan ham bir davlat o'zi fuqorolarini shani, qadr –qimmatini to'laqonli tan olishi va himoya qila olishi eng buyuk jasorat. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 27-moddasida aniq qilib belgilab qo'yilgan. Ya'ni: "Har kim o'z shani va obrosiga qilingan tajovuzlardan, shahsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi dahlsizligiga ega. Hech kim qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibidan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashmalar sirini oshkor qilishi mumkin emas"[10] deb belgilab qo'yilgan.

Xullas, shuni ta'kidlash mumkinki, axloq – faqat insonga ato etilgan buyuk ne'mat. Shu bois o'zimiz-o'zimizni va iloji bo'lsa, o'zgalarni ham axloqiy tarbiyalash barchamizning muqaddas burchimizdir. Axloq har qachon har qaysi vaqtda muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan hadislarida quyidagicha keladi: Abdulloh ibn Abbos (r.a.) Rasululloh (s.a.v)dan rivoyat keladi "Rasulluloh (s.a.v): "Har bir musulmon kishining ikkita qizi bo'lib, ularni yaxshi axloq, yaxshi muomala bilan tarbiyat qilsa, qizlari albatta uning jannatga kirishiga sababchi bo'ladi",- dedilar". Musulmonlargacha bo'lgan davrda qizlarni tiriklayin ko'mib tashlashgan. Islom dini kirib kelganidan so'ng jamiyatda o'zgarish seziladi. Qiz farzandlarga ham ahamiyat beriladi. Qiz farzand ota-onasini jannatiy qiladi. Ota-ona o'z qiziga to'g'ri tarbiya bersa u ota-onasini jannatga olib kiradi. Alloh taolo naqadar mehribon va rahimli zot. Birgina ayol kishiga berilgan to'g'ri tarbiya bo'lajak kelajak avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Islom dinida ayol qanchalik e'zozlanishi va tarbiya berishda muhim ekanini ko'rishimiz mumkin. Biz bo'lajak pedagog sifatida, kelajakda yoshlarimizning ma'naviy yetuk, e'tiqodi mustahkam bo'lib kamol

topishida axloq, o'z o'zining qanchalik zarur ekanligini qon qonigacha singdirishda va hayotida shu fazilatlarini namoyon qilishida albatta o'z hissamizni qo'shamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imom Al Buxoriy. Al-jome as-sahih. – T.: “Hilol-nashr”, 2021. –B. 245.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Odob> // Xulq
3. Erkin Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. 1998. –b. 33.
4. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim tarjimai. Niso surasi 69-oyat.
5. Kalkanov Eshmatboy. (2021) [Patriotism and Socio-Spiritual Factors that Patriotism](#). International Journal of Development and Public Policy. –pp. 177-179.
6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2022 - Б. 293.
7. Dilshodjon Karimov. (2022). O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
9. Umid Adambayev. (2021). [Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevori](#) // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) [Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии](#). Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). [Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan](#). International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
13. Kandov B. (2022) [Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan](#). Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
14. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
15. Адамбаев Умидбек. (2022) [Ишонч-этикодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири](#) / Scientific progress. – pp. 348-351.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) [Экологик маданият ва уни шакллантириш](#) // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) [Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati](#). Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) [Ишонч-этикодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни](#) // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Баходир Мирзаевич Қандов. (2021) [The importance of forming an active civic position among young people](#). Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.
20. Қандов Б.М. (2021). [Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization](#) // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.

21. Bakhodir Qandov. (2020) [Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty](#). – P. 488-495.
22. Kandov B.M. (2021). [Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment](#) // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
23. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). [The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization](#) // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
24. Togayev Shavkat Hurrarovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) [The role of education in the development of environmental consciousness of a person](#). ISJ Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) [Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic](#) // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.
26. Оғабек Султанов (2021). Талаба-ёшларнинг ахлоқий бурчини шакллантириш – комил инсон тарбиясининг муҳим омили / Academic Research in Educational Sciences, -p. 315-320.
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. [Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan](#) // International Journal of Development and Public Policy Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. Academia Globe: Inderscience Research. –p. 39-42.
29. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) [Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan](#). EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
30. Adambaev U. (2021). [Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb](#) // Экономика и социум. – С.18-21.